

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Qahhorova Moxinur

*Andijon viloyati, ADU Pedagogika va san'atshunoslik
fakulteti talabasi*

Kalit so'zlar: *kommunikativ kompetensiya, texnologiya, faoliyat, komponent, nutq, til, muloqot.*

Ijtimoiy munosabatlar va insonlararo muloqotlar “noziklashgan” bugungi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, jamiyatning muhim a'zolari sifatida to'laqonli muloqot ko'nikmalariga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Boisi bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuviga kommunikativlik zarurati dolzarbdir. Bu esa faoliyatning samarali natijasi hamda o'zaro munosabatga kirishish jarayoni bilan bog'liqdir. Bola shaxsi muloqotining samarali bo'lishida eng zarur komponentlardan biri kommunikativ kompetensiyaning shakllanganligidir.

Ma'lumki, insonlarning kommunikativ kompetensiyasi tarkibiga boshqalar bilan o'zaro harakat qilish, o'quv jarayoni, madaniy va ijtimoiy hayotda muloqot yuritishda foydalaniladigan turli belgilar ya'ni nutq, til va turli vaziyatlar kiradi. Bolalarning shaxs sifatida shakllanishida ta'limning ilk bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimi muhim sanaladi. Nutqning kommunikativ vazifasi bolada juda erta, ya'ni maktabgacha ta'lim davrida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu davrda bolalar atrof-olam va jamiyat, ijtimoiy hayot haqidagi ma'lumotlarni juda tez o'zlashtiradilar.¹³ Maktabgacha yosh davrida bolalar o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalar butun hayoti davomida asqotadi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim sohasida juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda biroq, o'quv-tarbiyaviy jarayonda turlicha yondashuvlar olib борилса-да, bolalarning maktab ta'limiga moslashishi, tengdoshlari va atrofdagilar bilan samarali muloqotga kirishishi qiyin kechmoqda. Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning muloqotga faol kirishishi, so'z boyligi, nutqiy faollik darajasi hamda kundalik nutqiy faoliyatga kirishish jarayonini o'rganishga doir ilk kuzatuv ishlari quyidagicha asoslanadi:

- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda lug'at boyligining maktabda o'qitiladigan umumta'lim fanlarini egallash uchun yetarli emasligi;
- bolalarning o'z fikrini erkin ifodalash, nutqiy muhitga mos so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga oid didaktik ta'minotning yetarli emasligi;

¹³ Shodiyeva Q. Nutq o'stirish uslubiyoti. Darslik. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi – T.:2008.-B.44.

- ota-onalarning o‘z farzandini maktab ta’limiga nutqiy jihatdan tayyor bo‘lish mezonlari va talablaridan yetarlicha xabardor emasliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar muloqot davomida o‘z fikri, hissiyotlari va taassurotlarini namoyon eta olmayotganliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalar o‘z suhbatdoshiga iltimos yoki ma’lumotlarni aytma olmasligi, tanish insonlari bilan muloqotga kirisha olmasliklari;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kompetensiyaviy ko‘nikmalarini maqsadli shakllantirishga yo‘naltirilgan o‘quv va didaktik topshiriqlarning tizimlashtirilmaganligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda nutqni dialogik shaklini yetarli darajada shakllanmaganligi hamda kommunikativlikni rivojlantirishga moljallangan metodik manbalarning yetarli emasligi;
- maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini (ijtimoiy-hissiy, nutq, muloqot o‘qish va yozish malakalari sohalari) samarali egallahshlarini ta’minlovchi didaktik tizim ishlab chiqilmaganligi;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar aniqlanib, amaliyotga joriy etilmaganligi;
- MTT pedagoglari tomonidan kommunikativ kompetensyaning ijtimoiy-ruhiy aspektlari to‘liq anglanmayotganligi.

Yuqorida qayd etilgan muammo va kamchiliklar maktabgacha ta’lim mazmuni, unga qo‘yiluvchi davlat talablari ko‘lami doirasida bartaraf etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta’minoti tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetensiyalar va nutqiy madaniyatning shakllanganligiga ham bevosita bog‘liqdir. 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli Qarori talablarida *bola kompetensiyasi* tushunchasiga ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilimi, ko‘nikmasi, malakalari hamda qadriyatlari deb ta’rif beriladi¹⁴. Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonida mazkur kompetensiyani bajarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, maktabgacha ta’lim muassasasining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishining soha kompetensiyalari tarkibida kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida belgilab berilgan bo‘lib, muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda.

¹⁴ 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 802-sonli Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.12.2020-y., 802-son. <http://www.lexuz.uz>.

foydalana bilish ko'nikmasi deb izohlangan¹⁵. Maktabgacha katta yoshdag'i bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktabgacha ta'lim talablaridan biri sifatida zamonaviy ta'lim tendensiyalariga tayaniladi. Davlat talablarining ijtimoiy-hissiy rivojlanish sohasida maktabgacha katta yoshdag'i bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqot malakalarini rivojlantirishga qodirligi, muloqot davomida o'z fikrini, hissiyotlari va tassurotlarini namoyon etishi, tanish insonlar bilan oson muloqotga kirishishi, ijtimoiy xulqning qoida va meyorlarga bo'ysunishi ko'rsatilgan.

Ma'lumki, maktab o'quvchilari nutqining boy, ravon, adabiy til me'yorlariga muvofiq bo'lishi ularning maktabgacha ta'lim yoshida olgan bilimlarining asosi ekanligi isbotlangan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bola jismoniy, ruhiy, ma'naviy, shu bilan birga nutqiy bilimga ehtiyoj sezadi. Bola nutqdan o'z fikri, xis-tuyg'ularini ifodalashga rag'bat ko'rsatadi, qiziqadi, ya'ni atrofdagi insonlarga ta'sir qilish uchun foydalanadi. Bola tashqi dunyoni ruhiy jarayonlar yordamida, shuningdek, nutq yordamida bilib olish imkoniyatini his qiladi. Magarki bolaga maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab to'g'ri so'zlashga o'rgatilib borilsa, bola normal holatda rivojlanadi, ya'ni, tasavvur, tafakkur, idrok etish, so'ng esa, fikr yuritish qobiliyatları paydo bo'ladi va bu qobiliyat takomillashib boradi. Bu takomillashish asnosida bola ulg'aygan sari o'zini qurshab turgan olamga, ijtimoiy muhitga, voqe'a-hodisalarga qiziqish bildiradi. Mazkur qiziqishlarini ifodalash uchun esa albatta nutqdan foydalanadi. Bola nutqining esa normal holatda bo'lishida, so'z boyliklari doirasining keng bo'lishida, shu bilan bir qatorda maktab ta'limiga sifatli tayyorlanishida kommunikativ kompetentsiyaning o'rni beqiyosdir. Maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bolani nafaqat maktab ta'limiga tayyorlash, balki, uning shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men"obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. T.: 2019-yil 16-dekabr, O'RQ-595-son. Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019-y., 03/19/595/4160-son).

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. (Takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Mualliflar: Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarov V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. – T., 2022.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -T.: O'zbekiston, 2016.- 56 b.Arushanova A. G. Rech i recheyoye obsheniye detey: Razvitiye dialogicheskogo obsheniya: Metod. posobiye dlya vospitatatelya. – 2-ye izd., ispr. i dop. – M., 2005. – 128 s.
- 3.. Alifanova YE. M. Formirovaniye kommunikativnoy kompetentnosti detey doshkolnogo i mladshego shkolnogo vozrasta sredstvami teatralizovannix igr: Avtoref. diss. kand. ped. nauk. – Volgograd, 2001. – 15.s.
4. Abobakirova O.N. Sovremeniye problemi i innovatsionniye podxodi podgotovki detey k shkole // Molodoy ucheniy. – Moskva, 2015. – № 3.
5. Abdakimova M.K. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimi taraqqiyotining tashkiliy-pedagogik asoslari (1991-2000 yy). Pedag. fan. nom. ... diss. avtoref. – T., 2004. – 22 b.
6. Babayeva D.R. Tevarak-atrofni o'rghanishda maktabgacha katta yoshdag'i bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish: Pedag. fan. nom. ... diss. – T., 2001. – 156 b.
7. Babayeva D.R. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. – T., 2017. – 184 b.